

## O‘ZBEKISTONDA SOLIQQA TORTISH VA SOLIQ MA’MURCHILIGI SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI JORIY ETILISHIN BOSQICHLARI

*Rustamov Sobirdjon Maxmudovich*

*XSTBX inspeksiya boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada, soliq ma‘murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar va ularni samaradorligini baholash yo‘llari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, raqamli transformatsiya, usullar va vositalar, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalar.

### **Kirish:**

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, ijtimoiy o‘zgarishlarga zaruriy moslashishni ta‘minlaydigan va axborot muhitida munosib o‘rinni kafolatlaydigan tafakkur tarziga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Raqamli texnologiyalar samarasi o‘laroq bugungi kunda soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi asosiy muloqot virtual platformaga ko‘chib ulgurdi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshlik salohiyatining o‘shishida, zamonaviy AKTlar beqiyos ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma‘lum.

Bu esa soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, asosiysi, iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi:**

Rossiyalik olimlar ham o‘z ilmiy izlanishlarida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatida zamonaviy AKTdan samarali foydalanish masalalarini o‘rganish, shuningdek, global iqtisodiy tizimning raqamli transformatsiyasi sharoitida, ilg‘or

AKTdan foydalanishga asoslangan innovatsion uslubiy yechimlar va texnologik mexanizmlarni ishlab chiqishga bir necha bor uringanlar.

Mahalliy mutaxassislarning kopleks ilmiy izlanishlari, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi tarmoqlari va sohalarida AKTdan samarali foydalanish masalalarini hal etishga bag‘ishlangan.

Mahalliy olimlarimiz: Alimov, Xayitmatov (2019), Begalov (2020), Gulyamov, Shermuxamedov (2018) va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari va sohalarida, jumladan statistika sohasida zamonaviy AKTdan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirish sharoitida, O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchi faoliyatida AKTdan keng foydalanish metodologiyasini takomillashtirish masalalari munozarali bo‘lib qolmoqda. Muammoning dolzarbligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammo bo‘yicha tadqiqot olib borishni va ushbu maqolaning mavzusini aniqlashga imkon berdi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Globalashuv jarayonida zamon talab va chaqiruvlaridan kelib chiqib, mavjud muammoni hal qilishda, Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, qiyosiy, tizimli, iqtisodiy va statistik, SWOT tahlili, monografik tadqiqot usullari, anketa so‘rovi, guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, optimallashtirish usuli shuningdek, WEB-saytlar, kompyuter tarmoqlari va maxsus dasturiy paketlar bilan ishlash usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ayni jarayonda soliq to‘lovchilar murakkab, ammo muhim yo‘lni muvaffaqiyatli bosib o‘tyapti: notanish, ammo foydali imkoniyatlarni oson o‘zlashtiryapti, yangiliklarga tez moslashyapti, qulayliklardan yanada unumli foydalanishga faol o‘rganyapti.

Soliq to‘lovchilardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish yuzasidan tashkiliy-texnik va hamkorlik jarayonlari. Bunda soliq xizmati organlari o‘zlarining vakolatlaridan foydalanib, byudjetga soliq tushumlarini undirish bo‘yicha bank va moliya muassasalari bilan hamkorlik ishlarini tashkil etadi, bank muassasalariga soliqlarni undirish (so‘zsiz) buyicha tegishli ko‘rsatmalar, qonun yo‘l qo‘ygan sharoitlarda soliq qarzordorligi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning hisobvaraqlarini vaqtinchalik muzlatib turish borasidagi ko‘rsatmalarni amalga oshiradi va tegishli tartibda Moliya organlari bilan hamkorlikda soliq tushumlarining holati bo‘yicha o‘zaro ma‘lumotlar ayirboshlaydi. Shu bilan birgalikda, o‘z vakolatlari doirasida soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik darajasini aniqlash borasida tanlanma kuzatish ishlari (masalan, xronometraj)ni amalga oshiriladi.

Soliq xizmati organlarida soliq ob'ektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo'llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilish. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq ob'ektlari, tushumlari va soliq to'lovchilarning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash ishlari tashkil etiladi. O'zbekiston soliq tizimida bu borada 30 dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi.

Soliq qonunchiligining ta'minlanishi yuzasidan hamkorlik ishlarini tashkil etish. Soliq xizmati organlari soliq nazoratini amalga oshirish va boshqa usullar bilan soliq qonunchiligi buzilgan hollarda ushbu holatlarga huquqiy baho berishda o'zlarining vakolatlaridan tashqari holatlar bo'yicha huquq-tartibot organlariga tegishli tartibda murojaatlar qiladi va zaruriy hamkorlik ishlarini amalga oshiradi. Shuningdek, xo'jalik sudlariga soliq qarzdorligini undirish, soliq to'lovchini bankrot deb e'lon qilish, soliq to'lovchining mol-mulkini xatlash va shu kabi yo'nalishlar murojaatlar qilish ishlarini tashkil etadi.

Soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini ko'rsatish va ularning soliq madaniyatini oshirish borasidagi ishlarni amalga oshirish. Soliq xizmati organlari soliq to'lovchilardan soliqlarni majburiy tartibda undirish ishlari bilan bir qatorda ularga soliq xizmatlarini ham ko'rsatishga majbur hisoblanadi. Bunda ulardan soliq hisobotlarini elektron tarzda qabul qilib olish, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni ularga belgilangan tartibda yetkazish, soliq to'lovchilarning soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha savollariga javob berishi, ularga maslahat ishlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning madaniyatini oshirish bo'yicha turli xil tadbirlarni ham amalga oshirib boradi.

Soliq xizmati organlari o'zida qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish. Bu jarayon ham soliq ma'murchiligining muhim qismi hisoblanadi. Soliq xizmati organlarining o'zlarida umumiy qonunlarning bajarilishi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarida qonunlarga rioya qilinish holatlari, ishonch telefonlariga qilingan murojaatlarning haqqoniyligi, soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq ob'ektlarini yashirish, soliq hisobotlarini noto'g'ri qabul qilish, soliq to'lovchilarning qonuniy murojaatlariga javob bermaslilik, soliq tekshiruvlarini o'tkazishda noxolislik qilinishi kabi holatlarning oldini olish va ular aniqlanganda tegishli tartibda choralar ko'rish ishlari ham amalga oshirilib boriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi ularga asosiy milliy infratuzilmalarning tubdan qaramligini shakllantirishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va hayot sohalarida zamonaviy AKTdan foydalanishni kelgusida joriy etish va kengaytirish zaruratini tug'dirdi. Aynan shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy axborot-kommunikatsiya tizimini

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Farmoni 27-iyun 2013-yilda qabul qilingan edi.

Qarorda ushbu yo'nalishda bir qator amaliy chora-tadbirlar belgilab olindi va mamlakatimizda telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmalarini rivojlantirish dasturi hamda "elektron hukumat"ning samarali ishlashini ta'minlaydigan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini yaratish loyihalari ro'yxati tasdiqlandi.

So'nggi yigirma yilda soliq ma'murchiligi jarayoniga AKTni izchil joriy etish davlat soliq qo'mitasining soliq to'lovchilar va soliq solinadigan ob'ektlar to'g'risida to'plangan ishonchli ma'lumotlarni tizimlashtirish, ushbu ma'lumotlarning qayta ishlanishi va ularning ishonchli saqlanishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati izchil olib borayotgan eng muhim tadbirlaridan biridir.

Agarda soliq tizimini isloh qilish ma'lumotlarni qayta ishlash uchun yagona kompyuter tarmog'ini shakllantirishdan boshlangani ajablanarli emas. Xususan, 1993-yil 3-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma'lumotlarni qayta ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to'g'risida" gi 388-sonli qarori qabul qilindi va bu soliq organlarini kompyuter texnologiyalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlashda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishga yordam berdi. Ushbu normativ hujjat bosqichma-bosqich yaratilgan va barcha darajadagi soliq organlarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish funksiyalarini avtomatlashtirish, xizmatning barcha bo'limlarini ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash, barcha ma'lumotlarni keng qamrovli operatsion tahlil qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan soliq xizmatining axborot-kommunikatsiya tizimini shakllantirishga asos yaratdi. Ushbu tizimni shakllantirish jarayonining boshida, 1993-yilda soliq organlari ixtiyorida atigi 182 ta kompyuter mavjud edi, soliq inspeksiyalarining faqat bir qismi bunday uskunalar bilan ta'minlangan edi. Shu bilan birgalikda, protsessorlar past ko'rsatkichlarga ega edi va juda sekin ishlardi. Kompyuterlar asosan yuridik shaxslarning shaxsiy kartalarini saqlaydigan tizim ma'murlari va inspektorlari ixtiyorida edi. Deyarli barcha ishlar qog'oz hujjatlar asosida amalga oshirilar edi.

Biroq, 1995-yilga kelib soliq xizmatining moddiy-texnik bazasi ancha mustahkamlanib, avvalgilariga qaraganda ancha ilgarilab ketgan protsessorlar asosidagi 2 ming 127 dona kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 359-yil 14-sentyabrdagi 1995-sonli "O'zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish to'g'risida qaroriga muvofiq tashkil etilgan davlat soliq qo'mitasining yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazini tashkil etish AKTni mamlakat soliq xizmati faoliyatiga joriy etish

jarayonlarini jadallashtirishning muhim bosqichi bo'ldi. Markazning vazifalari qatoriga O'zbekiston axborot tizimida ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ining quyi tizimini shakllantirish maqsadida soliq axborotlari bilan ishlash, davlat muassasalari va banklarning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish ham kiradi.

1997-yildan boshlab mamlakatda soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini berish va qo'llash tizimi qo'llanila boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 7-yanvardagi "soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llash ko'lamini kengaytirish to'g'risida" gi 1999-sonli Qarorining qabul qilinishi soliq qonunchiligini amalga oshirish mexanizmini yakunlash imkonini berdi. Shu paytdan boshlab STIR jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan pul hisob-kitob hujjatlarida ko'rsatilishi shart qilib belgilandi.

Shu bilan bir qatorda davlat soliq xizmatining texnik jihozlari ham takomillashtirila boshlandi. Shunday qilib, 1997-yilda hisoblash texnikasi soni 3908 taga yetdi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va kompyuter texnikasining tez eskirishi uni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan chora-tadbirlar zarurligini keltirib chiqardi. Bu vazifa u yoki bu darajada barcha davlat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldiga ham qo'yiladi.

Umuman olganda soliq ma'murchiligining samaradorligi bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sharoitda axborot texnologiyalariga uzviy bog'liqdir. Albatta soliqqa tortishda axborotlashtirishning roli beqiyos. Bunda ayniqsa soliq hisobini to'g'ri tashkil qilish va uning bir maromda ishlashida axborotlarning xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim sanaladi. Soliq tizimida soliq to'lovchilar va soliq xizmatlari organlarining soliq siri sifatidagi axborotlarni saqlash ham huquqiy ham iqtisodiy-sotsial jihatdan o'ta muhim sanaladi. Bu yerda nafaqat iqtisodiy, shuningdek, huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Demak, soliq tizimini axborotlashtirishda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim sanaladi. Axborotlarning maxfiyligini saqlash esa soliq ma'murchiligining asosiy bosqichlaridan hisoblanadi. Soliq ma'murchiligining samaradorligi ham faoliyatning axborotlashuvning darajasiga bog'liq bo'ladi. Axborotlashtirish esa soliq ishiga sarflanadigan vaqt omilini va unga tenglashtirilgan xarajatlarni kamaytiradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xaridorlarga berilayotgan keshbek summalar to'g'ri hisoblanishi va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish maqsadida, shubhali keshbek summalarini aniqlash tahlila-tahlil mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda, katta son va miqdordagi cheklarni ro'yxatdan o'tkazish, chek ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng uni bekor qilish yoki soliq hisobotlarini aks ettirmagan holatlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali aniqlash va ushbu keshbek summalarini bekor qilish choralar ko'rish.

To'lov tashkiloti, tijorat banklarining elektron to'lov xizmatlari (shu jumladan mobil ilovalar orqali), shuningdek, elektron tijorat platformalari — "Marketpleys" larning axborot tizimlari yordamida masofadan turib amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlar bo'yicha tranzaksiyalarning elektron cheklarida soliq organlari axborotlar tizimlariga integratsiyalashgan va avtomatik tarzda shakllanuvchi fiskal belgilarni majburiy aks ettirish, shuningdek, ushbu cheklarni keshbek olish uchun avtomatik ro'yxatdan o'tkazish hamda soliq hisobotlarida alohida satrda aylanma miqdorini aks ettirish mexanizmini yaratish.

Bugungi kunda shakllangan davlat soliq xizmati organlarida AKTni joriy etish tuzilmasi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning yaxlit tizimiga, shu jumladan vazirliklar va idoralar, komissiyalar va tekshirishlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyatlarga asoslangan. Shu bilan birga, asosiy e'tibor byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga soliq tushumlarini tahlil qilish va prognoz qilish, naqd pul aylanmasini monitoring qilish, bankdan tashqari aylanmani kamaytirish choralarini ko'rish, soliq qarzlarini undirish masalalariga qaratilmoqda. Ushbu jarayonlarning barchasi tezkor ma'lumotlar almashinuviga asoslangan, shuning uchun davlat soliq xizmati axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir. Soliq organlarining axborot resurslariga xizmat ko'rsatishining muhim prinsipi axborot xavfsizligi hisoblanadi. Axborot xavfsizligi tasdiqlangan "Soliq organlarining axborot xavfsizligi konsepsiyasi" va ishlab chiqilayotgan axborot xavfsizligi siyosatiga muvofiq axborotni himoya qilishning tashkiliy-texnik tadbirlari va dasturiy-apparat vositalari to'plami bilan ta'minlanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. "Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" – PQ-5252-son Qarori, 04.10.2021 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Tosh: G'.G'ulom 2020.- 640 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining «2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-73-son qarori.